

TARIX VA HUQUQ FANI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH  
SAMARADORLIGI

**Fattoyev Farrux Ali o‘g‘li**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*50-son maktabning huquq fani o‘qituvchisi*

**Tilavov Saddam Farhod o‘g‘li**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*50-son maktabning huquq fani o‘qituvchisi*

**Gadoyev Botir Bahodirovich**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*50-son maktabning tarix fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Quyida berilgan maqolada dars faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol usullarning ta‘lim jarayonida qo‘llash qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi va ularning o‘quvchining har tomonlama fikrlash doirasiga ta‘siri haqida fikr bildirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonun , “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” , yangi pedagogik texnologiyalar , interfaol , Case-study , keyslar metodi .*

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish ishlarini tubdan isloh qilish masalasi qo‘yilgan. Jumladan, unda: “inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq- atvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir” deb ta‘kidlangan.

Bo‘lg‘usi pedagoglar yuksak ma‘naviy madaniyat, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma‘naviy-madaniy sohalarda islohotlar jadallik bilan amalga oshiriladigan bugungi kunda , ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish, jahon ta‘limi standartlari darajasida shaxsga ta‘lim berish va ijtimoiy samaradorlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish talabi ta‘lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta‘lim tizimining hal qiluvchi bo‘g‘ini bu – o‘qituvchilardir. Shu asnoda jamiyatning kelajagi, uning ravnaqida ziyolilar-o‘qituvchilarning mas‘ullik darajasi yuqori. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, “Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonun amal qilayotgan hozirgi sharoitda bu narsa alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi mutaxassis zamonaviy fan va texnologiyalarni qunt bilan o‘rganishi barobarida, u ayni paytda yuksak e‘tiqodli, ma‘naviyat-ma‘rifat bo‘yicha kuchli

bilimga ega, mafkuraviy jihatdan sobitqadam, iymoni butun, go‘zal inson bo‘lishi lozim. Ta‘lim tizimida bu narsaga e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada jiddiy yutuqlarga ham erishilmoqda.

Interfaol (inter – bu o‘zaro, act – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilmoq yoki kimbilidir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadigan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talablarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Kunlardan bir kun ko‘l bo‘yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: “men ochman, menga yordam ber!”. Donishmand quyidagicha javob beribdi: “men senga baliq berishim mumkin, sen tez to‘yasan va biroz vaqt o‘tgach, huddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so‘raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to‘g‘ri keladi. Yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o‘rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordamim kerak bo‘lmaydi. O‘z yo‘lingni tanla...”.

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi o‘qituvchi talabaga “qarmoq yasashni” o‘rgatishi va aqlli talaba yasashni qanchalik tez va mustahkam o‘rganib olsalar, ular shunchalik birovlariga muhtoj bo‘lmasdan o‘z “ovlariga” ega bo‘ladilar.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyixalashtirilgan va kafolatlangna natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ta‘limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta‘lim jarayonida ishtirok etuvchi o‘quvchi shaxsi ustivorligini ta‘minlash;
- ta‘lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- ta‘lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta‘lim mazmunini ta‘minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

“Case-study”ning asosiy maqsadi – turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida o‘quvchilarning kontseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruhliy tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.



Keyslar metodi (Case method) yoki keys-stadi (case-study), aniq vaziyatlar analizi (tahlili) metodi bo'lib, real ijtimoiy, iqtisodiy, biznes vaziyatlar ta'rifidan foydalanuvchi ta'lim texnikasi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilardan berilgan vaziyatni tahlil qilish, muammolar mohiyatini anglash, ushbu muammolarning muqobil yechimlarini izlash va ular orasidan eng afzalini tanlash talab etiladi. Keyslar real dalilli materiallarga yoki real vaziyatga maksimal ravishda yaqinlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu metod dastlab 1924-yilda Garvard biznes maktabi (Harvard Business School)da qo'llangan. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani yechish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam yetakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menejrlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batavsil hisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilariga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret vaziyat ta'rifi ushbu vaziyat tahlil qilinishi va mustaqil ravishda yoki jamoa bo'libmunozara tashkil etish vositasida uning yechimi topilishi uchun berilardi. Keys metodi biznes yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida keng targ'ib etiladi. Kun sayin ushbu texnologiyaning tarafdorlari ortib bormoqda. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ommalashadi. Yevropaning yetakchi biznes maktablari INSEAD, LBS, HEC, LSE, ESADE va boshqalar keys-stadi ta'lim texnologiyasi vositasida dars beribgina qolmay ushbu keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar. 2000-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab keys-stadi ta'lim texnologiyasiga qiziqish ortib boradi – oliygohlar qoshida turli to'garaklar (Keys klublar)tashkil etila boshlaydi. Bundan tashqari turli tashkilotlar keys-stadi yuzasidan bellashuvlar va boshqa tadbirlarni uyushtira boshlaydilar (masalan,Changellenge>>, FutureToday). 1909-yildan 1919-yilgacha bo'lgan davrida keys metodida asosida ta'lim quyidagi sxema asosida tashkil etilgan: amaliyotchi talabalarga aniq vaziyatni bayon etish, undan so'ng ushbu vaziyat analizini berish va nihoyat muammo echimini aniqlash va isbotlash ko'rsatmasi berilar edi. Eng birinchi keyslar to'plami 1921 yilda (Dr. Copeland, Dean Donhman tomonidan) chop etilgan edi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartarafetish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, o'quv jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kiradi va bular quyidagilar: o'quv birliklarini (mezonlar) belgilash; diagnostik tahlil; tuzatish kiritish; qayta ishlash (to'ldirish); kutilishi lozim bo'lgan (kafolatlangan) natijani olish; reyting (taqqoslash).

Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan maktab va litseylarda o‘quvchilarning bilish faoliyatini hamda dars vaqtida bo‘ladigan kamchilik – nuqsonlarni e‘tiborga olish, darsdagi o‘qitish texnologiyasini jonlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta‘limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, barkamol avlod tarbiyasiga, jahon ta‘lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga alohida diqqat-e‘tibor kuchaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilangan bo‘lib, unga nisbatan qo‘yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta‘lim islohatlarining natijasini belgilab beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I.A “O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li”. T.: O‘zbekiston, 1992-y.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: «Знание», 1989
3. А.А.Абдуқодиров, F.A . Astanova, F.A.Абдуқодиров “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba .-T.: Fan va texnologiyalar, 2014 y